# I. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 2746,4 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,1 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 170,1 mlrd. so‘mni (102,0 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari 2458,1 mlrd. so‘mni (100,9 foiz), qishloq xo‘jaligida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 19,4 mlrd. so‘mni (117,3 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 9,2 mlrd. so‘mni (102,4 foiz), ovchilik xo‘jaligida 0,2 mlrd. so‘mni (102,6 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 89,4 mlrd. so‘mni (101,2 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar) hajmining taqsimlanishi, foizda**



**2022- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur’atlari**




Xususan yuqori o‘sish sur’atlari G‘uzor (103,2 foiz), Qarshi shahar (102,9 foiz), Shahrisabz (102,7 foiz), Kitob va Nishon tumanlari mos ravishda (102,3 foiz), Muborak (102,1 foiz), Mirishkor (101,9 foiz), Chiroqchi (101,2 foiz), Shahrisabz shahar (101,1 foiz), Qamashi (100,4 foiz), Dehqonobod va Koson tumanlarida (100,3 foiz) o‘sish kuzatildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**



Viloyatning qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmida Chiroqchi tumanining ulushi 14,1 foizni tashkil etdi va hududlar boʻyicha yetakchilik qilmoqda, Kitob tumani 9,3 foiz, Shahrisabz tumani 8,1 foiz, Gʻuzor va Koson tumanlari 7,9 foiz, Qarshi tumani 7,8 foiz, Dehqonobod tumani 7,1 foiz, Yakkabogʻ tumani 6,8 foiz, Qamashi tumani 6,4 foiz, Kasbi tumani 6,2 foiz, Nishon tumani 5,7 foiz, Muborak tumani 5,3 foiz, Mirishkor tumani 5,2 foiz, koʻrsatkich bilan keyingi oʻrinlarni egalladi, eng kam ulush Qarshi (1,7 foiz) va Shahrisabz (0,5 foiz) shaharlarida qayd etildi.

**2022- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi**

| | ***mlrd. soʻm*** | ***oʻsish sur'ati %*** |
|---|---|---|
| **Viloyat boʻyicha:** | **2746,4** | **101,1** |
| *shaharlar:* | | |
| Qarshi | 48,1 | 102,9 |
| Shahrisabz | 13,3 | 101,1 |
| *tumanlar:* | | |
| Gʻuzor | 215,7 | 103,2 |
| Dehqonobod | 194,8 | 100,3 |
| Qamashi | 176,2 | 100,4 |
| Qarshi | 214,2 | 100,0 |
| Koson | 218,0 | 100,3 |
| Kitob | 254,5 | 102,3 |
| Mirishkor | 141,7 | 101,9 |
| Muborak | 146,3 | 102,1 |
| Nishon | 155,5 | 102,3 |
| Kasbi | 171,0 | 100,1 |
| Chiroqchi | 387,7 | 101,2 |
| Shahrisabz | 223,2 | 102,7 |
| Yakkabogʻ | 186,2 | 97,1 |

**2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**

*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*




## DEHQONCHILIK



2022- yilning yanvar-martida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 170,1 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,5 foizni tashkil qildi.

**Hosil yig‘imi**. 2022- yil yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3421 tonna sabzavot (106,8 foiz) yig‘ib olindi.

**2022- yilning yanvar-mart oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Fermer xo'jaliklari* | | *Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari* | | *Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* | *tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* | *tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* |
| Sabzavotlar | 38 | 181,0 | 3092 | 100,6 | 291 | 2,7 m. |

**2022- yilning yanvar-martida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**





## CHORVACHILIK

Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan koʻrsatilayotgan tizimli qoʻllab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining oʻsishiga, ichki isteʼmol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan toʻyinishiga imkon yaratdi.

2022- yilning yanvar-martida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2458,1 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 100,9 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,5 foizni tashkil etdi.

2022- yilning 1- aprel holatiga oʻtgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 103,0 foiz (jami 1644,1 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,8 foiz (536,8 ming bosh), qoʻy va echkilar 101,0 foiz (4735,8 ming bosh), otlar 101,5 foiz (32,7 ming bosh), parrandalar 96,3 foizni (5743,4 ming boshni) tashkil etdi.

**2022- yil 1- aprel holatiga xoʻjalik toifalari boʻyicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *ming bosh* | *oʻsish surʼati, %* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **1644,1** | **103,0** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xoʻjaliklari | 89,5 | 125,6 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari | 1538,0 | 102,1 |
| Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 16,6 | 89,2 |
| **ulardan sigirlar** | **536,8** | **102,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xoʻjaliklari | 33,2 | 114,6 |

| | ming bosh | o'sish sur'ati, % |
|---|---|---|
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 497,8 | 102,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 5,8 | 111,5 |
| **Qo'y va echkilar** | **4735,8** | **101,0** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 351,9 | 106,2 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 4137,7 | 101,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 246,2 | 94,2 |
| **Otlar** | **32,7** | **101,5** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 3,6 | 112,4 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 28,0 | 100,2 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,1 | 101,7 |
| **Parrandalar** | **5743,4** | **96,3** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 380,9 | 119,7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 4361,0 | 101,9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1001,5 | 73,4 |

Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 93,5 foizni, fermer xo'jaliklarida 5,4 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 92,7 va 6,2 foizni, qo'ylar va echkilar 87,4 va 7,4 foizni, parrandalar 75,9 va 6,6 foizni tashkil qildi.

## 2022- yil 1- aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

**Yirik shoxli qoramollar** *(ming bosh)*




*shu jumladan:* **sigirlar** *(ming bosh)*




**Qo'ylar va echkilar** *(ming bosh)*




**Parrandalar** *(ming bosh)*



2022- yilning yanvar-martida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 43,0 ming tonna go‘sht (2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 100,8 foiz), 141,6 ming tonna sut (101,1 foiz), 92,3 ming dona tuxum (101,7 foiz) ishlab chiqarildi.



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 98,6 foiz, sut ishlab chiqarishda 98,9 foiz, tuxum ishlab chiqarishda 64,4 foizni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *miqdori* | *o‘sish sur’ati, %* |
|---|---|---|
| **Go‘sht (tirik vaznda), *ming tn.*** | **43,0** | **100,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 1,0 | 102,4 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 41,4 | 101,8 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,6 | 59,9 |
| **Sut, *ming tn.*** | **141,6** | **101,1** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 4,8 | 102,5 |

| | *miqdori* | *o'sish sur'ati, %* |
|---|---|---|
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 135,2 | 100,9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,6 | 117,4 |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **92,3** | **101,7** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 2,2 | 79,8 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 57,2 | 101,2 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 32,9 | 104,6 |

**2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Go'sht** *(ming tonna)*




**Sut** *(ming tonna)*



**Tuxum** *(mln. dona)*




**Fermer xo‘jaliklari**. 2022- yilning yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 169,8 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,6 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 6,4 foizni tashkil etdi. Dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 102,8 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,0 foizni, chorvachilik mahsulotlarining hajmi 67,0 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,7 foizni tashkil qildi.

**Hosil yig‘imi**. 2022- yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklar tomonidan 38 tonna sabzavot (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (181,0 foiz) yetishtirildi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

| | *2021- yil yanvar-mart* | | *2022- yil yanvar-mart* | | *2021- yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | |
| Sabzavot | 21 | 0,7 | 38 | 1,1 | 181,0 |

**Yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari**




**Chorvachilik**. 2022- yilning yanvar-martida fermer xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 1008 tonna go‘sht (2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 102,4 foiz), 4777 tonna sut (102,5 foiz), 2195 ming dona tuxum (79,8 foiz) ishlab chiqarildi.

**Fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari**

| | *2021- yil yanvar-mart* | | *2022- yil yanvar-mart* | | *2021- yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | |
| Go'sht | 984 | 2,3 | 1008 | 2,3 | 102,4 |
| Sut | 4660 | 3,3 | 4777 | 3,4 | 102,5 |
| Tuxum, ming dona | 2750 | 3,0 | 2195 | 2,4 | 79,8 |

2022- yilning 1- aprel holatiga fermer xo'jaliklarida 89,5 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 33,2 ming bosh sigir, 351,9 ming bosh qo'y va echkilar, 3,6 ming bosh ot, 380,9 ming bosh parrandalar mavjud.

**Yanvar-mart holatiga fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari**

